

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON  
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>I.O.Raxmonova</b>	
Ingliz tilidagi "Food"/"Oziq-ovqat" konseptining milliy xususiyatlari.....	1101
<b>Sh.G.Akbarova</b>	
A comparative analysis of the original and the translations of the essay "The stranger" (L'etranger) by Alber Camus.....	1107
<b>Sh.G.Akbarova</b>	
Alber Kamyu asarlari tarjimasiga mazmun va mohiyat ta'siri .....	1111
<b>Sh.G.Akbarova</b>	
О некоторых тайнах Французских артиклей .....	1115
<b>D.A.Ganieva, G.S.Mirzayeva</b>	
Realialarning madaniy konnotativ xususiyatlari.....	1118
<b>G.S.Mirzayeva</b>	
Lingvokultremalar tarjimasida translitratsiya usuli.....	1122
<b>N.K.Abbasova</b>	
Formation of foreign-language communicative competences in language learners using english proverbs and sayings.....	1125
<b>A.A.Qayumov, A.B.Kosimova</b>	
Jahon adabiyotida drabllarning o'rganilishi .....	1130
<b>D.I.Mirzayeva</b>	
O'xshatish uslubiy kategoriyasining semantik-stilistik xususiyatlari.....	1134
<b>D.A.G'aniyeva, S.Yaxyoyeva</b>	
Abbreviatsiya so'z yasashning samarador usuli sifatida .....	1137
<b>Sh.B.Dushatova</b>	
Unveiling implicit meaning: exploring the subtext of euphemisms .....	1140
<b>Sh.B.Dushatova, X.J.Xoliqova</b>	
The psychology of euphemisms: why do we use them?.....	1144
<b>Z.M.Xalilova</b>	
Kognitiv tilshunoslik zamonaviy tilshunoslikning yangi yo'nalishi sifatida .....	1148
<b>A.S.Toshmatov</b>	
Beyond grammar: building confidence and clarity in student writing (higher education) .....	1153
<b>N.X.Qurbonov</b>	
The positive effects of video games in teaching english to beginner-level learners .....	1160
<b>D.E.Normatova</b>	
Sharq ilk uyg'onish davri va uning ilmiy-falsafiy mohiyati.....	1166
<b>D.R.Axmadaliyeva</b>	
Talabalarning ingliz tilida nutqiy kompetensiyasini o'yin texnologiyalari asosida rivojlantirish metodikasi.....	1171
<b>N.Sh.Abdullayeva</b>	
Talabalarning xorijiy tilda kasbiy muloqotini o'rgatish jarayonida dlii texnologiyalarining integratsiyasi.....	1177
<b>S.A.Aliyeva</b>	
Geortonimlar bilan bog'liq perifrazalar tadqiqi.....	1182
<b>S.A.Aliyeva</b>	
Turli tizimli tillarda geortonimik indikatorlarning leksik-semantik xususiyatlari .....	1185
<b>M.A.Axundjanova</b>	
A cooperative small group methodology in teaching english for esp students .....	1189
<b>R.M.Shukurov, F.B.Abduraximova</b>	
Turli tizimli tillarda so'z yasashining umumiy va farqli jihatlari .....	1193
<b>F.B.Abduraximova</b>	
O'zbek tilida mubolag'a va uning darajalanishi .....	1203
<b>Sh.F.Latipov</b>	
Unveiling the significance of linguistic lacuna in foreign language teaching.....	1208
<b>L.T.Galimullina</b>	
Semantic peculiarities of english phraseological synonyms with the component of precious stones and metals .....	1210



UO'K: 813.21'17

## O'XSHATISH USLUBIY KATEGORIYASINING SEMANTIK-STILISTIK XUSUSIYATLARI

СЕМАНТИКО-СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СТИЛИСТИЧЕСКОЙ  
КАТЕГОРИИ СРАВНЕНИЯ

## SEMANTIC-STYLISTIC FEATURES OF THE STYLISTIC CATEGORY OF SIMILE

Mirzayeva Dilshoda Ikromjonovna   
Farg'ona davlat universiteti, PhD, dotsent

## Annotatsiya

Ushbu maqolada badiiy asarlarda tilning ahamiyati muhokama qilinadi, so'z fikr almashish, orzu va maqsadlarni yaratish uchun asosiy element sifatida ta'kidlanadi. O'xshatish, ikki narsa yoki hodisaning o'xshash tomonlarini ajratib ko'rsatish uchun solishtirishga asoslangan nutq figurasi badiiy tasvirda jonli va bo'rtirilgan tasvirlar yaratishning kuchli qurolli sifatida tavsiflanadi. O'xshatish eng qadimiy va eng ko'p qo'llaniladigan tasviriy vositalardan biri hisoblanib, taqqoslanayotgan narsalar yoki hodisalar o'rtasidagi umumiy xususiyatlarga tayanadi.

## Аннотация

В этой статье рассматривается важность языка в художественных произведениях, подчеркивая слово как основной элемент для обмена идеями и создания мечтаний и целей. Подчеркивается эффективность языка в художественных произведениях, в частности, за счет умелого использования таких языковых единиц, как сравнения. Сравнение, фигура речи, основанная на сравнении двух вещей или событий с целью подчеркнуть их сходство, описывается как мощный инструмент для создания ярких и преувеличенных описаний в художественных образах. Сравнение считается одним из старейших и наиболее широко используемых образных приемов, основанных на общих характеристиках сравниваемых объектов или явлений.

## Abstract

This article discusses the importance of language in artistic works, highlighting the word as the main element for exchanging ideas and creating dreams and goals. The effectiveness of language in artistic works is emphasized, particularly through the skillful use of language units like similes. Simile, a figure of speech based on comparing two things or events to highlight their similarities, is described as a powerful tool for creating vivid and exaggerated descriptions in artistic imagery. Simile is considered one of the oldest and most widely used figurative devices, relying on common characteristics between objects or phenomena being compared.

**Ключевые слова:** сравнение, стилистический прием, стандарт сравнения.

**Kalit so'zlar:** o'xshatish, stilistik vosita, o'xshatish etaloni.

**Key words:** simile, stylistic device, simile standard.

## KIRISH

Til va nutq nihoyatda murakkab, shaxs va jamiyat uchun almashtirib bo'lmaydigan darajada ahamiyatli hodisalardir. Tilning uch vazifasidan biri – emotsional-ekspressivlikni ifodalash, ayniqsa, ijodiy tafakkur sohibi bo'lgan inson uchun zaruriydir. Bu o'rinda professor N.Mahmudovning til haqidagi quyidagi fikrlari juda ham o'rinli: "Til faqat aloqa vositasigina bo'lganda edi, u juda oddiy, sodda va qashshoq bir narsaga aylangan bo'lardi. Holbuki til bemisl boy, sehru sinoatga, ruh-u ruhoniyatga, ko'rk-u komillikka limmo-lim bir xilqatdir"[3;6]

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tilning asosiy elementi so'z bo'lib, so'z nutqda fikr almashish qurolli vazifasini bajarsa, badiiy asarda esa ijodkorning orzu-maqsadi, o'y-xayollarini yuzaga chiqaruvchi hamda voqelikni obrazli tasvirlash vositasi sifatida namayon bo'ladi. Darhaqiqat, badiiy asar (matn) tilning ta'sirchan bo'lishini belgilovchi, ta'minlovchi birdan-bir omil badiiy asar tilning badiiy jihatdan pishiq, ta'sirchan bo'lishidir. Bunda so'z ustalari (yozuvchi, shoirlar) ning til birliklari, ayniqsa, o'xshatishlardan mahorat bilan foydalanishi muhim ahamiyat kasb etadi. O'xshatish ikki narsa yoki voqea hodisa

## TILSHUNOSLIK

o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'laroq, aniqroq, bo'rttiribroq ko'rsatib berishdir. O'xshatish asosan nutqiy hodisa hisoblanadi. Chunki bu o'rinda ma'lum predmet bir predmetga o'xshatilsa, xuddi shu predmet boshqa o'rinda ikkinchi narsaga o'xshatilishi mumkin.

O'xshatish eng qadimgi tasviriy vositalardan biri bo'lib, eng sodda va juda ko'p qo'llanadigan sintaksik hodisa hisoblanadi. O'xshatish tasvir obektini boshqa narsa-hodisaga o'xshatish orqali yorqin va bo'rttirib tasvirlashga asoslangan badiiy tasvir vositasi bo'lib, bunda o'xshatilayotgan narsa-hodisalar uchun umumiy belgi-xususiyatlarga tayaniladi

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Fe'l asosli o'xshatish kategoriyasi qurilmalarida o'xshashlik munosabati ikki narsa yoki hodisaning harakati va holatidagi umumiy xususiyat bilan xarakterlanadi. Ikki narsa yoki hodisaning harakat-holatidagi umumiy belgi sifatida fe'l turkumiga oid so'z – o'xshatish asosi, o'xshayotgan obyekt sifatida narsa, hodisa yoki shaxsni bildiruvchi so'z - o'xshatish subyekti reallashadi. Subyektga o'xshatilayotgan predmet yoki hodisa, ya'ni o'xshatish etaloni gapda o'xshatish asosini xarakterlovchi so'z sifatida namoyon bo'ladi. O'xshatish etaloni asosning belgi aktanti sifatida uning semantikasini ma'lum darajada to'ldiradi. O'xshatish asos va etaloning semantik munosabatiga ko'ra o'xshatish munosabati ifodasining uslubiy vazifasini belgilash mumkin. Jumladan, o'xshatish asosi nominativ ma'noda qo'llanganda, etalon undan anglashilgan harakatni uning intensivligi nuqtai nazaridan xarakterlaydi, ya'ni ekspressiya uchun xizmat qiladi. Misol: *...tap-taqir bo'lib qolgan dasht tandirday qiziy boshlagan edi*. Qiyoslang: *dasht tandirday qiziy boshlagan edi; dasht qiziy boshlagan edi*. Misoldan ko'rinib turibdiki, etalon o'xshatish yo'li bilan asosning ma'nosini kuchaytirib berish uchun qo'llangan. Bunday qurilmadagi ifodaviylik o'xshatish etaloni sifatida reallashgan leksema bilan o'xshatish subyektini ifodalovchi leksemaning o'zaro semantik munosabati natijasida hosil bo'ladi.[4;161] Jumladan, quyidagi konstruksiyalarning 1- va 2-sidagi o'xshatish munosabati qizil belgiga, 3-si esa dahshatli ifodali belgiga asoslangan. Bunda etalonga xos bo'lgan belgi-xususiyatning subyektga xos bo'lgan belgi-xususiyatdan ortiq ekanligi qurilma mantiqidan implitsit ravishda anglashiladi. Misol: *Nizomjon sherdek bo'kirib, o'rnidan turib ketdi*. (S.Ahmad)

Ifodaviylik yaratish maqsadi bilan qo'llangan o'xshatish kategoriyasi ko'pincha, jismoniy holat yoki qo'zg'alistni anglatuvchi fe'ldan iborat o'xshatish asosi bilan qo'llanadi: *cho'g'dek (loladek, lavlagidek) qizarmoq, bo'zdek (dokadek, qorday, paxtaday, devorday) oqarmoq, cho'yanday (mumday, ko'mirday) qoraymoq, oynadek (shishadek, o'tdek, ko'zgedek) yiltirarmoq, yaproqday (shamday, niholiday) titramoq, shamolday (yelday, quyunday, chaqmoqday) yugurmoq, chopmoq; ombirday siqmoq* kabi. Konstruksiya etaloni ko'chma ma'nodagi o'xshatish asosini xarakterlab kelganda ham uning ma'nosini kuchaytirib berish vazifasini bajaradi: *Etigining qo'njidan kelgan suv oyoqlarni xanjarday kesib, ko'zidan yosh chiqarib yubordi* (O.Yoqubov). Qurilmadagi xanjarday ifodali o'xshatish etaloni kesmoq fe'lining munosabatni ifodalashda ham etalon yorqin stilistik imkoniyatlar yaratadi: *ko'rib turibsan-ku, yelimday yopishib oldi* (O.Yoqubov), *ali mo'ylov esa... oyog'i kuygan tovuqdey pitirlab qoldi. Yodgorbek bu gaplardan saryog'dek erib, hadeb jilmayardi*. (O.Yoqubov).

O'xshatish etalonini original tarzda qo'llash orqali ham subyektiv munosabat ifodalanishi mumkin.[1;18] Bunday holda ko'pincha etalon semantikasi orqali o'xshatish subyektga ishora qilinadi. Masalan, O.Yoqubov "Ko'hna dunyo" romanida sulton MAhmud haqida shunday yozadi: *...u yerda to'xtab, egilgan boshlarga, behisob qabrlarday do'ppayib turgan ayonu boyonlarning yelkalariga qadalib qaradi*. Yoki: *... sultonning qiyg'och ko'zlari artilgan dinorday yarqirab, yupqa lablariga kulgu yugurdi*. Yozuvchi qabr so'zi orqali qattiq xastalangan sultonning kayfiyatiga, dinor so'zi orqali esa uning muhitiga ishora qiladi, ayni vaqtda, har ikki etalon semantikasi orqali salbiy subyektiv munosabatni ham ifodalaydi. Bunday usul, ayniqsa, hajviy asarlarda ko'p qo'llanadi: *Ammo o'pkam amirkon maxsidek g'ijimlayturg'on bo'libdi...faqirning qorni kundun-kunga oalag'on tarbutdek o'sib, bul a'nidan padar birlan volida "bolamiz qorin sola boshladi" deb xushnud bo'lar ekanlar*. (A.Qodiriy)

## XULOSA

Umuman, har qanday o'xshatishda muallifning subyektiv munosabati ma'lum darajada o'z ifodasini topadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, uslubiy jihatdan yorqin ifodalangan o'xshatishda qiyosning kutilmaganligi, betakrorlik va o'ziga xoslik seziladi. Shuning uchun ham mualliflar tomonidan takror-takror qo'llangan doimiy o'xshatishlar ba'zan stereotipga aylanib qoladi va aksincha, etalon tanlashdagi estetik nuqtayi nazar o'xshatishning ta'sirini kuchsizlantirib yuborishi ham mumkin.

Fe'l asosli o'xshatish qurilmalarida esa ikki narsa yoki hodisaning o'xshashligi ularning harakati orqali ifodalanadi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Черемисина М. Сравнительные конструкции русского языка. Новосибирск, 1976. –С.17-18.
2. Ўзбек тили стилистикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1983. 241-б
3. Махмудов Н. Ўхшатиш содда гапларда семантик-синтактик асимметрия // Ж. Ўзбек тили ва адабиёти.– 1986. -№ 6.
4. Худайберганава Д.С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини: Докторлик дисс., автореферати. – Тошкент, 2015. – Б.161.